

Botir Tajiboyev

**O'ZBEK TILIDA SO'ZNING  
ASSOTSIATIV MA'NO  
STRUKTURASI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**BOTIR TAJIBOYEV**

**O‘ZBEK TILIDA SO‘ZNING  
ASSOTSIATIV MA‘NO STRUKTURASI**  
(Milliy-madaniy semali birliklar)

**Monografiya**

**“Mahalla va Oila” nashriyoti  
Toshkent – 2021**

**KBK: 81.20'zb**

**T 15**

**UO'K: 811:008**

**ISBN 978-9943-7775-2-1**

Tajiboyev, Botir Raximjonovich.

O'zbek tilida so'zning assotsiativ ma'no strukturasi (Milliy-madaniy semali birliklar) [Matn] : monografiya / B.R. Tajiboyev. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2021. - 108 b.

Ushbu monografiyada o'zbek tilidagi milliy-madaniy semali birliklar orqali milliy ong va tafakkurning tilda namoyon bo'lishi masalasi sharhlanib, bu tipdagi birliklarda xalq madaniyati, urf-odat va an'analari aks etishi dalillangan. Shuningdek, o'zbek tilining milliy-madaniy semali birliklari ajratilib, mavzu jihatdan tasniflangan, assotsiativ tajriba materiallari asosida bunday birliklarning leksik-semantik xususiyatlari ochib berilgan.

Monografiya tilshunos olimlar, tilshunoslik ilmi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, magistrantlar va talabalar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

**D.E.Lutfullayeva** – filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**H.A.Dadaboyev** – filologiya fanlari doktori, professor

**M.K.Hakimova** – filologiya fanlari doktori, dotsent

*Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va ababiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (7-sonli yig'ilish bayonnomasi, 26.06.2021).*

© Tajiboyev B.R.  
© "Mahalla va Oila" nashriyoti, 2021.

## KIRISH

Jahon tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi yillaridan boshlab til birliklarini assotsiativ tahlil metodi asosida tadqiq etishga qiziqish kuchaydi. Til birliklarini bu yo'nalishda tadqiq etilishi natijasida inson psixologik tasavvuri va uning til tizimida aks etishi masalasi bo'yicha qiziqarli bilimlarga ega bo'lindi. Assotsiativ tahlil metodi til birliklarining inson tafakkuri, xotirasi, leksik zaxirasi kabi omillar bilan bog'liq tomonlarini yoritishda muhim o'rin tutdi. Ayniqsa, har bir xalqqa xos milliy-madaniy qadriyatlar va ular haqidagi tasavvurlarning tilda aks etishi muammosini o'rganishda assotsiativ tahlil metodidan foydalanish o'z samarasini ko'rsatdi.

Dunyo tilshunosligida bu kabi muammolar qatorida olamning milliy idroki va uning tilda namoyon bo'lishi, milliy-madaniy birliklarning assotsiativ munosabati, ularning matn yaratilishi va idrokidagi o'rni, assotsiativ lug'atlarni yaratish tamoyillari kabi masalalar ham dolzarbdir. Ma'lumki, til egalari tafakkurida lisoniy va nolisoniy omillar asosida hosil bo'ladigan assotsiativ aloqalar tilda ham o'z ifodasini topadi. Mazkur kognitiv-assotsiativ jarayon natijasida tilda yuzaga chiquvchi assotsiativ aloqa-bog'lanishlarni o'zbek tilidagi milliy-madaniy birliklar misolida tadqiq etish antroposentrik tilshunoslik uchun qimmatli nazariy bilimlar berishi shubhasiz.

O'zbekistonda ilm-fan sohasida olib borilayotgan tub islohotlar, ayniqsa, o'zbek tilining Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning mavqei ko'tarish, jamiyat hayotining barcha sohalarida faol qo'llanilishini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan qator qonun va qarorlar o'zbek tilini ilmiy o'rganishni yangi bosqichga ko'tarish zaruratini yuzaga keltirdi. O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shartligi o'zbek tilshunoslari hal qilishi lozim bo'lgan qator vazifalarni belgilab berdi. O'zbek tilidagi milliy-madaniy birliklarning assotsiativ tadqiqi amaliy yechimini kutayotgan mana shunday muammolardan biri hisoblanadi.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисига Мурожаатномаси. – Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь. 258-сон.